

Dilnura SUVANOVA,

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar, jismoniy madaniyat va sport kafedrasini assistenti

E-mail: d.suvanova@mail.ru

Tel.: +998937296043

O'zMU professori B.To'ychiyev taqrizi asosida

AESTHETIC CULTURE AND ITS SOCIAL-PHILOSOPHICAL ISSUES

Annotation

The article analyzes the issues of aesthetic culture, its concept, development, role in society, social nature and importance. It is stated that aesthetic culture is related to aesthetic values in the life of society, the processes of their creation and consumption, and that it reflects the results of the processes of aesthetic assimilation of nature. The process of development of aesthetic culture and its connection with human labor activity and level of living, aesthetic situations in social relations, social existence of art, aesthetic views, tastes and interests of society members, theoretical and practical issues of aesthetic education are analyzed.

Key words: Aesthetic culture, social activity of a person, healthy generation, aesthetic thinking, a spiritually perfect person, aesthetic culture of a person, the essence of aesthetic culture, its manifestations in art, artistic culture, society and individual activities.

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ЭСТЕТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ

Аннотация

В статье анализируются вопросы эстетической культуры, ее понятие, развитие и роль в обществе. Рассматривается связь эстетической культуры с эстетическими ценностями в жизни общества, а также процессы создания и потребления эстетических ценностей. Анализируются процесс развития эстетической культуры и его связь с трудовой деятельностью и уровнем жизни человека, эстетические ситуации в общественных отношениях, социальное сущность искусства, эстетические взгляды, вкусы и интересы членов общества, теоретические и практические вопросы эстетического воспитания.

Ключевые слова: Эстетическая культура, социальная активность человека, здоровое поколение, эстетическое мышление, духовно совершенный человек, эстетическая культура личности, сущность эстетической культуры, ее проявления в искусстве, художественной культуре, обществе и индивидуальной деятельности

ESTETIK MADANIYAT VA UNING IJTIMOY-FALSAFIY MASALALARI

Annotatsiya

Maqolada estetik madaniyat, uning tushunchasi, rivojlanishi, jamiyat hayotida tutgan o'rni, ijtimoiy mohiyati va ahamiyati masalalari tahlil qilingan. Estetik madaniyatning jamiyat hayotida estetik qadriyatlar, ularni yaratish, iste'mol qilish jarayonlari bilan bog'liqligi, uning tabiatni estetik o'zlashtirish jarayonlari natijalarini o'zida aks ettirishi bayon etilgan. Estetik madaniyat rivojlanishi jarayoni va uning inson mehnat faoliyati, turmushi darajasi bilan aloqadorligi, ijtimoiy munosabatlardagi estetik holatlar, san'atning ijtimoiy borlig'i, jamiyat a'zolarining estetik qarashlari, did va manfaatlari, estetik tarbiyaning nazariy va amaliy masalalarining estetik madaniyat bilan bog'liqligi masalalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Estetik madaniyat, shaxsning ijtimoiy faolligi, sog'lom avlod, estetik tafakkur, ma'naviy barkamol inson, shaxsning estetik madaniyati, estetik madaniyatning mazmun-mohiyati, uning san'at, badiiy madaniyat, jamiyat va shaxs faoliyatida namoyon bo'lish xususiyatlari.

Kirish. O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonida fuqarolarning estetik ongi va madaniyatini yuksaltirish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Jamiyat taraqqiyoti, uning u yoki bu vaqt va makondagi darajasi ko'p jihatdan fuqarolar ma'naviyati, ularning estetik madaniyati, turmush tarzi, kishilarning ma'naviy-moddiy, ijtimoiy ehtiyojlari hamda ularning qay darajada qondirilishiga bog'liqdir. O'zbekistonda jamiyat ma'naviyatini yuksaltirishdan maqsad fuqarolar estetik madaniyatini yangi bosqichga ko'tarish, tarixiy-madaniy, ilmiy, axloqiy-mafkuraviy, ijtimoiy-siyosiy qadriyatlarga jamiyatni poklantiruvchi va kelajakni ma'naviy jihatdan mustahkamlovchi omil sifatida qarashdan iborat bo'lgan yangi munosabatni shakllantirishdan iborat bo'lmoqda.

“Yoshlarimizni ona Vatanimizga, mustaqillik g'oyalariga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning iste'dod va qobiliyatini, ezgu intilishlarini ro'yobga chiqarish yo'lida boshlagan katta ishlarimizni bundan buyon ham qat'iyat bilan davom ettiramiz - deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, - Ayni shu maqsadda yurtimizning barcha viloyat va tumanlarida, shahar va qishloqlarimizda yangi-yangi ta'lim dargohlari, madaniyat va san'at maskanlari, sport inshootlari barpo etilib, yoshlar ixtiyoriga berilmoqda”[1].

Estetik madaniyat – estetik qadriyatlar, ularni yaratish va iste'mol qilish usullarining majmui bo'lib, u tabiatni estetik o'zlashtirish jarayonlari natijalarini, mehnat faoliyatida, turmushda, ijtimoiy munosabatlardagi estetik holatlarni, san'atning ijtimoiy borlig'ini, jamiyat a'zolarining estetik qarashlari, didlari va manfaatlari ko'lamini, estetik tarbiya nazariyasi va amaliyotini, kishilar estetik faoliyatlari namoyon bo'lishining rang-barang shakllarini ifoda etadi.

Bugungi kunda insonni bilimli, mas'uliyatli, siyosiy jihatdan idrokli, huquqiy savodxon, axloqan pok va ma'naviy barkamol bo'lib o'sishida estetik tafakkur va estetik madaniyat rivojlanishining ahamiyati katta bo'lmoqda. Estetik madaniyatning rivojlanishi shaxs ijtimoiy faolligini kuchaytiradi va uning o'z ijodiy imkoniyatlarini namoyon etishga sharoit yaratadi. Jismonan baquvvat, axloqan pok, estetik madaniyatli, ma'naviy barkamol insonni tarbiyalash masalasi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan davlat va jamiyat qurilishida muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

2023 yil 11 sentyabrda qabul qilingan №PF-158-sonli “O'zbekiston-2030” strategiyasi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonida ham fuqarolarning estetik ongi va estetik madaniyatini rivojlantirish masalasiga katta e'tibor qaratilgan. Ushbu farmonga 1- ilovaning 1-yo'nalishi 5-qismi “Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va madaniyat sohasini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha islohotlar”, deb nomlangan va ushbu yo'nalishda – jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash, o'zbek va jahon adabiyoti durdonalarini keng ommalashtirish, jamiyatda kitobxonlikni hamda aholiga

axborot-kutubxona xizmatini rivojlantirish, zamonaviy teatr va sirk san'atini har tomonlama rivojlantirish, yuksak badiiy-g'oyaviy saviyaga ega sahna asarlarini yaratish, o'zbek milliy san'atini targ'ib qilish orqali mamlakatimizning turistik salohiyatini oshirish, madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va ommalashtirish bilan bog'liq faoliyatni yanada takomillashtirish, madaniyat tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish, ularning moddiy-texnika bazasini yaxshilash va soha xodimlarini qo'llab-quvvatlash, tasviriy va amaliy san'at yo'nalishlarini rivojlantirish, milliy kinematografiyani rivojlantirish kabi maqsadlar belgilangan[2].

Bugungi kunda jamiyat hayotida ro'y berayotgan voqea va hodisalarni ayniqsa, ijtimoiy hayotda ro'y berayotgan voqealar yoshlar mafkurasida estetik madaniyat talablari asosida bilib olishlari lozim. Barkamol avlod tarbiyasida estetik madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish eng avvalo yoshlarimizning bugungi kun ma'naviy qiyofasini belgilashda, ularni ijtimoiy jihatdan faol shaxs bo'lib shakllanishida juda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shaxs estetik madaniyatini shakllantirishda bir qator talablar mavjud bo'lib, bu talablar asosan estetik madaniyatning mohiyatini, vazifalarini, uni san'at va madaniyatning jamiyat va shaxs ma'naviyatini boyitish uchun xizmat qilishida namoyon bo'ladi.

Yoshlarning estetik madaniyatini yuksaltirishda estetik idrok, estetik ideal, qobiliyat, estetik malakani, estetik ijodiy faoliyatni oshirish uchun san'at asarlarini o'zlashtirish, har bir shaxsni mehnat faoliyatidagi estetik jihatlarini idrok qilishdan, aniqlash va anglashdan iborat.

Estetik madaniyat haqida boshqa ta'riflar ham berilgan bo'lib, Bahodir Husanov tomonidan tayyorlangan lug'atda "Estetik madaniyat – insonning estetik faoliyati jarayoni, uning natijasida yaratilgan moddiy va ma'naviy qadriyatlar, shaxsni shakllantirish va kamolotida muhim omil bo'lgan ijtimoiy hodisa. Estetik madaniyat nafaqat tevarak olamni, balki insonni o'rab turgan ijtimoiy voqelikni bilishga intilish natijasi hamdir. Shu jihatdan olganda, estetik madaniyat shaxs millat, jamiyatning o'z-o'zini anglashi ham demak. Chunki estetik madaniyatda ijtimoiy birliklarning ehtiyoj va manfaatlari, o'ziga xosliklari, jahon tarixida tutgan o'rni, turli ijtimoiy tizimlarga bo'lgan munosabati ham o'z ifodasini topadi"[3], deyilgan. Inson faoliyatini tartibga solish, hayot tarzini shakllantirish estetik madaniyatning muhim funksiyalaridan bo'lib hisoblanib, bundan tashqari estetik madaniyatning baholash funksiyasi ham mavjud dir. Estetik madaniyatning baholash funksiyasi tufayli tiklanish sodir bo'ladi, madaniyatdagi barqarorlik, har bir davrdagi o'ziga xoslik, davomiylik, vorislik ta'minlanadi.

Olimning estetik madaniyati deganda uning estetik his-tuyg'usi, ilmiy farazi (fantaziya), ilmiy fahm-farosati (intuitsiya) ko'rgazmali ramziy tasavvurlarni hosil qilish qobiliyati, tafakkurining o'ziga xos tasviriy umumlashtirishlarga moyilligini tushunamiz[4], - deydi Erkin Umarov.

Estetik madaniyat deganda, ko'pchilik ilmiy adabiyotlarda, xususan, qomuslar va lug'atlarda jamiyat umumiy madaniyatining ixtisoslashgan qismi, jamiyatning san'ati va estetik munosabatlarini ta'minlash holati nazarda tutiladi. Bunda estetik qadriyatlar va ulardan foydalanish tizimlari, texnik vositalar, estetik faoliyat turlari va ular namoyon bo'ladigan ob'yektlar (san'at, xalq ijodi, muzey, teatr, ko'rgazma zallari, nashriyotlar va boshqalar) kiradi, - deydi Abdulla Sher, - Shuningdek, shaharsozlikdagi, atrof-muhitni go'zallashtirishdagi, dizayndagi va boshqa moddiy tizimdagi qadriyatlar ham "estetiklashgan" ijtimoiy-maishiy sohalar (turmush, sport, shaxs, bayramlar estetikasi) ham estetik madaniyatni tashkil etishda katta ahamiyatga ega[5].

Ma'naviy madaniyatning estetik ong va madaniyatga bog'liqligi masalasi O.G'aybullayev tomonidan, - Insonlarning ma'naviy madaniyati ularning estetik didi, estetik tuyg'ulari, estetik ongi va faoliyati, ijtimoiy hayotga va jamiyatga bo'lgan munosabatlarini, vaholanki, estetik hissiyotning bevosita estetik kechinmalar bilan bog'liqligini qamrab oladi[6], degan tarzda bayon etilgan. Estetik madaniyatning ma'naviyatga bog'liqligi masalasiga ham O.G'aybullayev o'z munosabatini bildirgan. Ma'naviyat haqida gap ketganda madaniy merosimiz, an'ana va rasm-rusumlarimiz, diniy qadriyatlarimiz, til va adabiyot, san'at hamda tarixiy xotiralar nazarda tutilar ekan, ana shu sanab o'tilgan ijtimoiy hodisalarning barchasi estetik madaniyatning shakl va mazmunini tashkil etuvchi asosiy jihatlar hisoblanadi. Estetik madaniyatni milliy til va uning muammolari, tarixiy xotira va rasm-rusumlar, jonajon o'lka go'zalligiyu axloqiy qadriyatlar va hokazo ob'yektiv va sub'yektiv omillarsiz tasavvur etib bo'lmaydi[7], deb hisoblaydi O. G'aybullayev.

Bizning fikrimizcha estetik madaniyat – jamiyatdagi estetik bilim, mezon va estetik qadriyatlarning yig'indisi bo'lib, u estetik qadriyatlarini yaratish va iste'mol qilish usullarining majmuasi sifatida tabiat, jamiyat va insonga nisbatan estetik munosabatni o'zida ifodalaydi.

Estetik madaniyat insonning mehnati jarayonida, kundalik faoliyatida, turmushida, ijtimoiy munosabatlarida namoyon bo'ladigan estetik holat va munosabatlarni o'rganib, san'at va uning ijtimoiy borlig'i, jamiyat a'zolari va ularning estetik qarashlari, ularning estetik didlari va manfaatlari, estetik tarbiyaning nazariy va amaliy masalalari, insonlarning estetik faoliyatlari estetik madaniyatning o'rganish sohalarini o'zida ifodalaydi. Bugungi kunda shaxsning estetik ongi, tafakkuri va madaniyatini rivojlantirish masalasi umumjamiyat va umumxalq ahamiyatiga ega bo'lgan masala bo'lib hisoblanadi. Bu vazifani amalga oshirish shaxsning milliy mentalitetini mustahkamlash, ijtimoiy taraqqiyot qonuniyatlarini to'g'ri anglash asosida amalga oshiriladi. Milliy mentalitet xalqning, millatning tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllangan iqtisodiy va ijtimoiy, diniy, falsafiy va ma'naviy hususiyatlarining, an'ana va insoniy fazilatlarining mushtarak birligini tashkil etib, u insonning estetik ongi va estetik madaniyati bilan bevosita bog'liqdir.

Xalqimizning tarixi, dini, ma'naviy merosi va an'analarni tiklash va rivojlantirish yoshlarning o'zligini anglashi va ijtimoiy faol shaxs bo'lib kamol topishlariga bevosita bog'liqdir. Yoshlarning estetik ongi va estetik madaniyati ularning ongi va qalbiga xalqimizga xos bo'lgan andisha, muruvvat, mehr-oqibat, oriyat, poklik va imonlilik kabi fazilatlarini singdirish asosida shakllantiriladi. Shaxsning estetik madaniyatini rivojlantirish, unda go'zallik qonunlariga asoslanuvchi yangicha estetik immunitetning shakllantirilishi asosida amalga oshiriladi.

Zamonaviy yoshlar buyuk ma'naviyat va sharqona komillik an'analarning vorislari sifatida estetik ong va estetik madaniyatning yutuqlariga doimo tayanib kelmoqdalar. Mustaqillik g'oyalari asosida fuqarolar, eng avvalo yoshlarning estetik ongi va madaniyati shakllantirilmoqda. Sog'lom avlodni tarbiyalash ularning tarixga, qadriyatlarga, ma'naviy merosga sog'lom munosabatini shakllantirish asosida amalga oshirilmoqda. Sog'lom avlodni tarbiyalash jarayonida ularning estetik ongi va madaniyatini rivojlantirish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda.

Xulosa va takliflar. Estetik ongi va madaniyatni rivojlangan barkamol avlod O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash, fuqarolarda milliy g'urur va iftihar tuyg'ularini yuksaltirish ularning estetik ongi va madaniyatini rivojlantirish asosida amalga oshiriladi. Estetik ong va madaniyatini rivojlantirish esa fuqarolar, eng avvalo yoshlarning ongi va qalbiga dunyoviy va diniy bilimlarni singdirish,

dunyoviy bilimlarga tayangan holda ularning dunyoqarashini shakllantirish, diniy qadriyatlarga tayangan holda ularning axloqiy va estetik tarbiyasini olib borish asosida amalga oshiriladi.

Jamiyat hayotida estetik madaniyatning rivojlanish qonuniyatlari ijtimoiy hayotdagi barcha sohalarni qamrab olgan holda tevarak-atrofdagi manzaralarning go'zalligini turli xil vaziyatlar asosida (ob'yektiv va sub'yektiv omillar natijasida) kelib chiqadigan estetik munosabatlarni, shaxs ideallari, inson hayot tarzi va mehnat faoliyatida zarur omil bo'lgan ijodkorlik qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Estetik madaniyat bugungi kunda har bir shaxsning jamiyat bilan aqolasida juda sezilarli darajada yaqqol namoyon bo'lmoqda. Yangilangan O'zbekistonda yoshlarning mafkurasida, dunyoqarashida sezilarli o'zgarish ro'y bermoqda. Ular qadriyatlarga sodiqlik, an'analarga hurmat, muomala madaniyatida esa go'zal xulqni namoyon etish, katta va kichiklarning o'zaro bir-biri bilan muloqatida ayniqsa ota-ona va farzandlar muomalasida, estetik madaniyat va estetik ong yaqqol namoyot bo'lmoqda. Bu esa o'z navbatida har bir yoshlarni yangicha fikirlash, jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lish uchun yangicha dunyoqarash, yot g'oyalarga nisbatan immunitetni shakllantirish va yoshlar estetik dunyoqarashini shakllanishiga olib kelmoqda.

Bugungi globallashuv asrida yashar ekanmiz, yoshlar turli g'oyaviy tahdidlarga, axborot xurujlariga qarshi tura olishi, xalqimizni estetik madaniyatini o'zgarishi uchun ayniqsa qadriyatlarimiz, turli xil marosimlarimizni, urf-odatlarimizni har xil ko'rinishda uchrashiga olib kelmoqda.

Estetik madaniyat har bir jamiyat aholisini ongini rivojlantirish uchun, o'z xalqi tarixini, ma'naviy-merosini, bugungi kundagi yangidan yangi islohotlarni barcha sohalardagi islohotlarni xalqni ma'naviy jihatdan yuklashi uchun tarbiyaviy jihatdan juda kuchli mexanizm ishlab chiqilishi lozim. Chunki estetik madaniyat jamiyatni yuzini, uning azaliy qadriyatlarini, urf-odatlariga sodiqligini, saqlab qolishda xizmat qiladi.

Estetik madaniyat taraqqiyoti shaxsda faollikni kuchaytiradi, o'z ijodiy imkoniyatlarini sinab ko'rish va ro'yobga chiqarishga da'vat etadi. Ana shunday ijtimoiy-tarixiy va ma'naviy jihatdan nihoyatda zarur bo'lgan masala – jamiyatda estetik madaniyatning shakllanishi va rivojlanishini tadqiq etish ham nazariy, ham amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

Estetik madaniyat jamiyat va shaxs ma'naviy hayotining muhim omili bo'lishiga qaramasdan, u faqatgina ma'naviy omillarga asoslanib qolmaydi. U butun bir insoniyat tomonidan yaratiladigan narsa va hodisalarning ichki va tashqi dunyosida aks etib turadi. Estetik madaniyat orqali har bir shaxs o'tmish merosini o'rganib, falsafiy tafakkurini boyitib boradi va real hayot manzaralarini idrok etishga, undan saboq olishga harakat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд, Тошкент, Ўзбекистон 2020 йил, 444 бет.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. 2023 йил, 11 сентябрь №ПФ-158. “Ўзбекистон-2030” стратегияси тўғрисида. <https://lex.uz/tu/docs/6600413>
3. Эстетика. Асосий тушунчалар изоҳли луғати. Масъул муҳаррир Б.Хусанов. Тошкент, “Университет”, 2019 йил, 176 бет.
4. Умаров Э. Эстетика (Нафосатшунослик). Олий ўқув юртлари талабалари учун ўқув қўлланма. Тошкент, Ўзбекистон, 1993 йил, 101 бет.
5. Abdulla Sher. Estetika. Nafosat falsafasi. Darslik. Toshkent, O'zbekiston 2014 yil, 349 bet.
6. Ғайбуллаев О. Эстетика. Самарқанд 2004 йил, 70 бет.
7. Ғайбуллаев О. Шахс маънавий камолоти ва эстетик маданият. Монография. Тошкент, “Чашма принт”, 2008 йил, 19 бет.